

KORRUPSIYAVIY JINOYATLAR

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi
Toshpo'latov Suhrob Sherzod o'g'li*

Annotatsiya: mazkur tadqiqot ishida korrupsion jinoyatlarning tushunchasi va uning zaruriy elementlari hamda korrupsion jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek korrupsion holatlarni vujudga keltiruvchi sabablar atroflicha muhokama qilingan.

Аннотация: В данном исследовании подробно рассмотрены понятие коррупционных преступлений и его необходимые элементы, а также специфика коррупционных преступлений, а также причины возникновения коррупционных дел.

Annotation: In this study, the concept of corruption crimes and its necessary elements, as well as the specifics of corruption crimes, as well as the causes of corruption cases are discussed in detail.

Kalit so'zlar: korrupsion jinoyat, mansabdor shaxs, poraxo'rlik, pora beruvchi, hokimiyat vakili.

Ключевые слова: коррупция, должностное лицо, взяточничество, взяточник, должностное лицо.

Keywords: corruption, official, bribery, bribe-taker, government official.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan, jahon hamjamiyati vakillarini tobora tashvishga solayotgan global muammolardan biri bo'lgan korrupsiya jamiyat xavfsizligi va barqarorligi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va hukumatning institusional rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan illatlardan biridir. Korrupsiyaga oid jinoyatlar hukumat vakillarining jamiyat oldidagi obro'siga putur yetkazibgina qolmay, ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning samarali yo'lga qo'yilishida ham jiddiy muammo tug'diradi. Korrupsiya bilan bog'liq muammolarning keng talqin qilinishi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishiga qaramay ushbu jinoyatni ildiz otib borishi uning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish va paydo bo'lish sabablarini kengroq o'rganishga undaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda korrupsiyaviy holatlarning vujudga kelishi, ya'ni pora berish, pora olish, vositachilik qilish, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish yoki undan chetga chiqish va shunga o'xshash holatlar bilan bog'liq bo'lgan karakatlarni sodir etish korrupsion jinoyatlarni keltirib chiqaradi. **“Korrupsiyaviy jinoyatlar** – bu mansabdor shaxs yoki xizmatchining mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy va nomoddiy naf ko'rishi uchun

g`arazli maqsadlarda foydalanishi, shuningdek, mansabdor shaxslarni ushbu maqsadlarda o`ziga og`dirishdan iborat bo`lgan jinoyatlar” [1]. S.K.Iliyning fikricha, mazkur turdagi jinoyatlar sifatida jismoniy yoki yuridik shaxslarning o`z xizmat mavqeini suiste`mol qilish yoxud o`z vakolatlari va majburiyatlarini bajarmasligi orqali qasddan sodir etilgan harakati yoki harakatsizligi [2] deya ta`riflaydi. Korrupsion jinoyatlar ko`p hollarda mulkiy ko`rinishdagi naf olishga qaratilgan poraxo`rlik jinoyati sifatida uchraydi. Bu turdagi jinoyatlarga turlicha qarashimiz mumkin. Tarixiy nuqtayi nazaridan olganda, korrupsiya eng qadimiy jinoyatlardan biri: qayerdagi davlat bo`lsa, davlat apparatining turli tarmoqlarida, pastdan yuqorigacha taralgan jinoyatning bir ko`rinishidir. Hududiy jihatdan qaraganda, korrupsiya butun jahonga yoyilgan jinoyatlardan biri hisoblanadi. Turli davlatlar o`tmishda va hozirda, dunyoning barcha qit`alarida korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurash olib borganlar va boradilar. Korrupsion jinoyatlarda shaxs yoki xizmatchilar o`ziga ishonib topshirilgan vakolatlar yoki mansab mavqeidan shaxsiy yoki boshqa shaxslarning moddiy yoki nomoddiy naf ko`rishi uchun g`arazli maqsadlarda foydalanishidan, shuningdek, ularni ushbu maqsadlarda o`ziga og`dirishdan iborat bo`lgan jinoyatlardir.

Korrupsiya bilan bog`liq jinoyatlarni ochish va ularni tergov qilish muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish muammolari, bir tomondan, ularning ko`pchiligi qat`iy maxfiylik sharoitida tayyorlanadi, ya`ni ko`p hollarda guvoh va shohidlargisiz, shuningdek jinoyat izlari sinchkovlik bilan yo`q qilingan holda amalga oshiriladi. Ikkinchidan, dastlabki tekshirish paytida yo`l qoyiladigan xatolar bilan bog`liq bo`lsa, uchinchidan esa jinoiy harakatning barcha ishtirokchilari qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi sababli to`g`ri ko`rsatuv berishdan bosh tortishi va bir birini qilmishini yashirishga urinishlari sabab bo`ladi. Shu bilan birga tergov jarayonida dastlabki tergov xodimlariga turli xil shakllarda jinoyat sodir etgan shaxslar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan qarshilik ko`rsatishda namoyon bo`ladi. Ayniqsa, uyushgan jinoiy guruhlar va jamoalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin bo`lgan korrupsion sxemalarning davlat hokimiyati organlari vakillari bilan birlashishi muammoli hisoblanadi.

Mazkur turdagi jinoyatlarning keng tarqalgan turi bu poraxo`rlik jinoyatidir. Unda ishtirokchilari sifatida, bir tarafdand – pora oluvchi, ikkinchi tarafdand esa – pora beruvchi doimiy ishtirok etishi talab qilinadi. Shuningdek, ayrim hollarda ushbu jinoiy harakatlarda pora olish-berishda vositachilik qiladigan shaxslar ham ishtirok etishi holatlari ham nazarda tutiladi. Mana shu uch turdagi shaxslarning, ya`ni jinoyat subyektlarining harakatlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning ishtirokchilari sifatida baholanadi va javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur turdagi jinoyatlarda pora oluvchi odatda mansabdor shaxs, hokimiyat vakili yoki xizmatchilar bo`lishi

mumkin. Poraxo`rlik jinoyatlarida jinoyatning predmeti sifatida pul, qimmatbaho sovg`alar, nomoddiy boyliklar hisoblanib ular pora oladigan odamga qaytarmaslik sharti bilan, lekin mulkiy mohiyatga molik bo`lgan xizmatlar bo`lishi mumkin. Bunday turdagi jinoyatlarga xalq orasida ko`p uchraydigan holatlar sifatida aytishimiz mumkinki, “fuqarolik pasportini muddatidan ilgari olish uchun polon so`m pul berish kerak” yoki “haydovchilik guvohnomasini muddatidan ilgari olish uchun pul berish”, “avtomaktabga bormasdan o`qituvchini qo`liga pul berish” yoki “avtomaktab imtixonlarni pul bilan topshirish kerak”, “mashinani vaqtliroq chiqishi uchun salonga palon so`m berish kerak”, “falon joyga ishga o`tish uchun rahbarga falon so`m berish kerak”, “jarimani kamaytirish uchun avtoinspektorga berish kerak”, xullas, “usti”ni bermasang ishing bitmaydi, degan tushunchalar avj olgan. Xalq nazarida “korrupsiya” deganda, amal kursisida galstuk taqib salobat bilan o`tirgan, bir qo`li bilan qanaqadir qog`ozga imzo chekayotgan, bir qo`li bilan stolning tagidan konvertga solingan porani olayotgan “amaldor” ko`z o`ngiga keladi.

Bunda jinoyat subyektlari pora oluvchi va pora beruvchi o`zining jinoyat harakati izlarini ikki tomonlama puxta yashirishdan manfaatdor bo`ladilar, chunki jinoyat fosh etilsa, bir vaqtning o`zida ikki tomon ham, ya`ni pora oluvchi ham, pora berish ham jinoiy javobgarlikka tortilishi muqarrar bo`ladi. Shuning uchun mazkur toifadagi jinoyatlar aksariyat hollarda guvohlarsiz va jinoyat izlari niqoblangan holda sodir etiladi. Ko`p hollarda pora qonuniy harakatlarni sodir etishni tezlashtirish uchun beriladi, yaniki navbat kutishdan qochish maqsadida. Bu turdagi jinoyatlarda ko`p hollarda guvohlar bo`lmaydi, bu holat esa poraxo`rlik jinoyatini ochish jarayonini mushkullashtirishiga sabab bo`ladi.

Bu toifadagi jinoyat ishlarda asosan egri dalillar ustunlik qiladi, ularning esa tadqiq etilayotgan hodisa va voqealar bilan turli aloqalari ko`p bosqichli isbotlash jarayonini talab etadi. Ba`zi hollarda vaziyatga qarab jinoyatga aloqador shaxslarning barmoq izlari pora predmetida, yoki o`ramlarida qoladi, ba`zan esa poraxo`rlikning boshqa izlari ham saqlanib qoladi (tovar cheklari, etiketkalar, pul, qimmatbaho narsalar, jinoyatchilarning shaxsiy yozuvlari va boshqalar). Ushbu kriminalistik izlar jinoyatni ochishni tezlashtiruvchi omillardir.

Pora harakat sodir qilingandan oldin yoki keyin berilishiga bog`liq bo`lmasdan, pora oldindan kelishilganligi, pora oluvchining manfaati uchun biron-bir harakat bajarilgan bo`lishidan qat`i nazar, pora predmetining butun yoki bir qismi olingan yohud mulkiy xizmatlar ko`rsatilgan paytdan boshlab sodir etilgan deb hisoblanib jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi. Aksariyat xollarda, korrupsiya jinoyatini sodir etish joyi bo`lib amaldor shaxsning xizmat xonasi hisoblanadi. Ammo, ba`zida bu turdagi jinoyatlar turli maishiy xizmat ko`rsatuvchi joylar: kafe, restoran, xatto avtotransport vositalarida ham sodir etilishi mumkin.

Jamiyatda korrupsion illatlarning vujudga kelish holatlari va sabablari ham turlicha asoslarda vujudga kelishi mumkin. Jumladan:

Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari – bu, birinchi navbatda, davlat xizmatchilarining past darajadagi maosh olishlari hamda ularning firma va fuqarolar faoliyatiga ta'sir etish vakolatining yuqoriligidadir. Amaldorlarda qandaydir noyob ne'matlarni taqsimlash vakolati mavjud bo'lsa, korrupsiya rivoj topadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davri mamlakatlarida ko'proq sezilsa, rivojlangan mamlakatlarda ham namoyon bo'ladi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga imtiyozli ravishda uy-joy berish dasturini amalga oshirish davrida korrupsiya qayd etilgan edi.

Korrupsiyaning institutsional sabablariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: davlat muassasalari faoliyatining yuqori darajada yopiqligi; hisobot tizimi kattaligi; qonun chiqarish tizimida oshkoralikning yo'qligi; bekorchixo'jalarni keng tarqalishiga va ko'rsatgan xizmatlaridan qat'iy nazar xizmat pog'onalaridan yuqoriga ko'tarilishga imkon beruvchi davlatning zaif kadrlar siyosati.

Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari: jamiyatda odob-ahloq tushunchalari yo'qolib ketishi; fuqarolarning yetarli darajada axborotga egaligi va tashkilotchiligi, "hokimiyat egalari"ning o'zboshimchaligiga jamiyat barmoq orasidan qarash holatlari natijasida vujudga kelishi mumkin.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, korrupsion jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Birinchidan, korrupsiyaga oid jinoyatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan shaxslar tomonidagina emas, balki bunday g'ayriqonuniy xatti-harakatlar natijasida naf ko'rayotgan boshqa shaxslarning qilmishlarini ham nazarda tutadi. Ikkinchidan, mazkur turdagi jinoyatlar o'ziga topshirilgan vakolatlarning qonunga xilof ravishda va g'arazli niyatlarda suiiste'mol qilinishi orqali sodir etiladi. Uchinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlardan olinadigan foyda moddiy va nomoddiy ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. To'rtinchidan, bu turdagi qilmishlar faqatgina uni sodir etayotgan shaxsning o'z manfaatlarini ko'zlab emas, balki boshqa shaxslar manfaati yo'lida ham sodir etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son.
2. G.Z.To'laganova, A.YU.Tadjibaeva, S.S.Mamanov. Korrupsiyaga qarshi kurashish huquqingiz bor. Risola. T.: TDYU nashriyoti, 2020. 6 - bet.
3. Илий С. К. Административные правонарушения коррупционной направленности // Административное и муниципальное право. 2015. № 5. С. 462.
4. M.M.Qurbonov, B.X. Xamidov, O.T. Ganiev, B.Z. Karimov. Korrupsion jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti. O'quv qo'llanma – T.: TDYU, 2021. – 11 – bet.